qolishida. Paxta siyosatining ogʻriqli nuqtalarini qalamga olgan muallif salaflar ijodida ushbu adabiy anʼanadan qolip sifatida foydalanadi, ammo yangi davrning yangi muammosini oʻrtaga tashlaydi.

Hikoya kulminatsiyadan keyingi holdan boshlanadi. Yechimga yaqin qolgan holat tasviridan tugunga oʻtiladi. Tugun qoʻyilgach, Abdusamad domlaning olis oʻtmishiga keyin esa yana tugunga qaytiladi. Voqealar rivoji "qayta eslash" tarzida kiritiladi. Nihoyat kulminatsiya boʻy koʻrsatadi. Kulminatsiyadan yechimga kelinadi. Hikoyaning qurilishidagi individuallik bilan muallif kitobxon diqqatini tutib turishga erishgan. Obrazlar joylashuvidagi uchlik bilan esa asosiy badiiy niyatini amlaga oshirgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilsak, R.Ahmedova oʻzbek adabiy tajribalari, anʼanalaridan oziqlangan holda yangi davr muammosiga nigoh tashlaydi va ijodiy pozitsiyasini namoyon qiladi. Bu esa adabiy anʼanalar zamonaviy oʻzbek nasrida ham davom etayotganini koʻrsatadi. Raxshona Ahmedova salaflari kabi obrazlarni uch nuqtaga joylashtiradi, umumiy kompozitsiyasida esa oʻziga xosligini saqlaydi.

Badiiy asarni tahlil qilishda obraz tabiati, sujet, badiiy detallar qatorida kompozitsion tafakkur imkonlaridan foydalanish yangi talqinlarga yoʻl ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Miliyev S. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. F.f.d. (DSc) dissertatsiyasi, T., 2020, 226-bet.
(2). Hamdamov U. Abdulla Qodiriy va oʻzbek adabiyoti. T., "Yangi asr avlodi", 2022, 208-bet.
(3). Hamroyev K. Hikoya kompozitsiyasi. T., "Nurafshon business", 2020, 140-bet.
(4). "Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati", 1995, 23-iyun.
(5). Quronov. D. Mutolaa va idrok mashqlari. T., "Akademnashr", 2013, 336-bet.
(6). Quronov. D. Adabiyot va boshqalar haqida. T.: "Akademnashr", 2019, 142-bet.
(7). Ahmedova R. Tushunarsiz sevgi izhori. T., "Read book" nashriyoti, 2023, 190-bet.

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna (Qoʻqon universiteti Andijon filiali, "Tillarni oʻqitish" kafedrasi mudiri; E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com)

MARKAZIY OSIYO TASAVVUF ADABIYOTI FRANSUZ MADANIY IDROKIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotining fransuz madaniy idrokida shakllanishida Aleksandr Papas tadqiqotlarining oʻrni tahlil qilinadi. Papasning nazariy qarashlari, ijodiy tatabbu' anʼanasi, mashhur mutasavvif adiblar ijodiga oid ishlari hamda tasavvufiy matnlarning fransuz madaniy kontekstida qabul qilinishi koʻrib chiqiladi. Papas qoʻllagan metodologiyaning Yevropa ilmiy jamoatchiligi tomonidan Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotini tushunish va baholashdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit soʻzlar: *Markaziy Osiyo, tasavvuf adabiyoti, Aleksandr Papas, fransuz madaniy idroki, tatabbu', adabiy meros, madaniyatlararo aloqalar.*

Насирдинова Ёркиной Абдумухтаровна (заведующая кафедрой преподавания языков, Кокандский университет, Андижанский филиал; E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com)

СУФИЙСКАЯ ЛИТЕРАТУРА СРЕДНЕЙ АЗИИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ КУЛЬТУРНОМ ВОСПРИЯТИИ

Аннотация. *В статье анализируется роль исследований французского учёного Александра Папаса в формировании французского культурного восприятия центральноазиатской суфийской литературы. Рассматриваются теоретические подходы Папаса, традиции литературного подражания (татаббу'), его изучение творчества выдающихся суфийских авторов, а также восприятие суфийских текстов в контексте французской культуры. Раскрывается значимость методологии Папаса в знакомстве европейского научного сообщества с суфийской литературой Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, суфийская литература, Александр Папас, французское культурное восприятие, татаббу', литературное наследие, межкультурные связи.*

Nasirdinova Yorkinoy AbdumuxtarovnaHead of the Department of Language Teaching, Andijan Branch of Kokand University; E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com)

SUFI LITERATURE OF CENTRAL ASIA IN FRENCH CULTURAL PERCEPTION

Annotation. *This article analyzes the role of French scholar Alexandre Papas's research in shaping the French cultural perception of Central Asian Sufi literature. Papas's theoretical approaches, traditions of literary imitation (tatabbu'), his studies of prominent Sufi authors, and the reception of Sufi texts within*

the French cultural context are examined. The significance of Papas's methodology in introducing Central Asian Sufi literature to the European academic community is also highlighted.

Keywords: *Central Asia, Sufi literature, Alexandre Papas, French cultural perception, tatabbu', literary heritage, intercultural connections.*

Kirish. Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyoti va tasavvuf ta'limoti ilmiy merosi boy madaniy qatlamlardan biri bo'lib, so'nggi yillarda ilmiy doiralarda yanada kuchli e'tibor qozonmoqda. Mintaqadagi tasavvuf adabiy an'ana, xususan, Naqshbandiya, Yassaviya, Qodiriya kabi tariqatlar tarixi, mashoyix va avliyolarning hagiografik asarlari hamda tasavvufiy she'riyat namunalari – ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlariga mavzu bo'lgan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida, sobiq Sovet davridagi mafkuraviy cheklovlar bartaraf etilgach, Markaziy Osiyo tasavvuf tarixiga yangi nazar bilan yondashish imkoni paydo bo'ldi. Natijada mintaqada tasavvuf tarixi va adabiyotini o'rganishda yangicha ilmiy usullar va nazariyalar qo'l-lanila boshlandi.

Mavzuga oid avvalgi tadqiqotlar tahlili. Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyoti va tarixini G'arbda o'rganishda bir qator tadqiqotchilar muhim hissa qo'shgan. Jumladan, amerikalik olim Devin DeVees Markaziy Osiyo tasavvuf tarixini asl manbalar asosida qayta talqin qilib, ilgari mavjud bo'lgan ayrim noto'g'ri qarashlarni (masalan, tasavvufni shomonizm qoldig'i deb hisoblash) tanqid qiladi [1; 110–112-b.]. Jo-Ann Gross mintaqadagi avliyo sulolalari va ziyoratgohlar tarixi orqali tasavvuf an'analari va xotira masalalarini o'rganadi. Anke fon Kügelgen tasavvuf va davlat aloqalarini, B.G'.G'afurov esa tasavvufning umumtarixiy ahamiyatini ko'rsatib, uni Markaziy Osiyo madaniy hayotining muhim qismi sifatida tasvirlaydi [1; 210-b.].

Shuningdek, fransuz sharqshunosligining Markaziy Osiyo adabiyotiga oid tadqiqotlari Muhammadjon Xolbekov tomonidan ham chuqur tahlil qilingan. U o'z izlanishlarida fransuz olimlarining Zahiriddin Muhammad Bobur va Alisher Navoiy merosiga bo'lgan qiziqishini o'rganib, ularning asarlarini tahlil qilgan. Biroq Muhammadjon Xolbekovning ta'kidlashicha, fransuz sharqshunoslari tomonidan Markaziy Osiyo adabiyotiga bo'lgan qiziqish, ko'proq tarjima va sharhlarga asoslangan bo'lib, matnlarning ichki poetik tuzilmasi, ramziy qatlamlari va tasavvufiy mazmuni yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Xolbekov, ayniqsa Alisher Navoiy asarlarining fransuz tiliga tarjima qilingan namunalarida, poetik obrazlar va tafakkur tizimining noto'g'ri yoki yuzaki talqin etilgan holatlarini ko'rsatadi [2;58-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tahliliy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Dastlab, Aleksandr Papasning Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyoti bo'yicha asosiy ishlari ("Ainsi parlait le derviche" va "Jomiyning mintaqaviy kontekstlarda qabul qilinishi") o'rganilib, uning tarixiy-kognitiv va antropologik yondashuvlari tahlil etildi. Keyin bu qarashlar D.DeVees va J.Gross, A.fon Kügelgen metodlari bilan solishtirildi. Ushbu uslub Papasning yondashuvini boshqa olimlar fonida ko'rsatish va uning Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotini tadqiq qilishdagi ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Manbalar matnda [6;112-b.] shaklida ko'rsatildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyotini madaniy va adabiy kontekstda o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bu yo'nalishda fransuz olimi Aleksandr Papas (Alexandre Papas) muhim nazariy-uslubiy yondashuvlarni ilgari surdi. U, asosan, islomdagi tasavvuf va tariqatlar tarixi, avliyo va shayxlar kultlari, tasavvuf she'riyati va ularning madaniy ahamiyatini tadqiq etadi. Papasning yondashuvi devonalar hayoti, avliyolar maqbaralari, tasavvuf tili, adabiy ramzlar, hamda madaniyatlararo adabiy ta'sirlar kabi muhim masalalarni qamrab oladi. Tadqiqotlarida u Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yaqin Sharq kabi hududlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ham yoritadi. Ushbu maqolada aynan Papasning tasavvuf adabiyoti bilan bog'liq qarashlari tahlil qilinadi; siyosiy va ijtimoiy masalalar muhokama doirasiga kiritilmagan.

Aleksandr Papas Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotini br butun yaxlit tizim sifatida qaradi va fanlararo tahlil metodini qo'lladi. U tasavvufni jamiyat hayotining boshqa sohalari – adabiyot, falsafa, xalq e'tiqodlari va ramziy tafakkur bilan uzviy bog'liq tarzda tahlil qildi. Papas tasavvufiy ramz va timsollarning yashirin ma'nolarini ochishga alohida e'tibor qaratgan holda, jumladan, qalandar darveshlarning kosa, aso va chillaxona kabi buyumlarini ramziy jihatdan tahlil qilib, sufiylarning dunyoqarashi va ruhiy tajribalarini yoritib beradi [3;47-b.]. Uning kognitiv yondashuvi tasavvufiy matnlarni chuqur anglashga imkon yaratadi.

Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyoti tarixida sofiy-shoirlarning o'rni beqiyosdir. Aleksandr Papas ushbu mutasavvif adiblarning ijodini yangi rakursda ko'rib chiqib, ayniqsa, XV asr – Temuriylar davri ulug' shoir-mutafakkiri Abdurahmon Jomiy (1414–1492) ijodiga alohida e'tibor qaratadi. Papas hammualliflikda chop etgan "Jomiyning mintaqaviy kontekstlarda qabul qilinishi" asarida mutaffakkirning she'riy merosining Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarga ta'siri, asarlariga payrov qilingan ijodiy tatabbu'larni

tahlil qiladi [5;15–17-b.]. Shuningdek, Papas Markaziy Osiyo Turkiy tasavvuf adabiyotining yetakchisi Alisher Navoiy ijodiga ham urg‘u beradi. Xususan, Navoiy qalamiga mansub “Mahbub ul-qulub” asaridagi darveshlar hayoti orqali XV–XVI asrlardagi tasavvufiy muhit haqida qimmatli tarixiy-etnografik xulosalar chiqaradi [4;210-b.]. XVIII asrda Sharqiy Turkistonda ijod qilgan sufiy shoiri Xorobotiy asarlari ham Papas tomonidan maxsus tahlil etilgan bo‘lib, bu asarlarda Rumiy va Navoiy masnaviylarining uslubiy ta’siri mavjudligi, ijodiy davomiylik va tatabbu’ an’analarining yorqin misoli ekanligi qayd etiladi [5;85–87-b.].

Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyotining eng qadimiy namunalari XII asrda yashagan türk mutasavvifi Xoja Ahmad Yassaviy qoldirgan «Hikmatlar» to‘plamidir. Bu asar xalq tilida sodda uslubda bitilgan bo‘lib, unda tasavvufiy axloqiy ta’limot nazm orqali ifodalangan. Aleksandr Papas tadqiqotlarida Yassaviydan boshlangan turkiy tasavvufiy she’riyat an’anasi Navoiy va uyg‘ur shoiri Xorobotiy kabi keyingi avlod ijodkorlari tomonidan davom ettirilgani qayd etiladi. Ularning ijodida avvalgi ustozlar, xususan, Jaloliddin Rumiy va Abdulrahmon Jomiy asarlariga bog‘liqlik mavjud.

Papasning ta’kidlashicha, Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotining rivoji asosan ijodiy tatabbu’ (ijodiy taqlid) an’anasi orqali amalga oshgan. Bu an’anaga ko‘ra, keyingi shoirlar oldingi ustozlarning she’rlariga nazira va tatabbu’lar bitib, umumislomiy adabiy almashinuvga hissa qo‘shganlar. Masalan, Abdulrahmon Jomiyning she’riy merosi faqat Xurosonda emas, balki Markaziy Osiyo va Hindiston kabi boshqa mintaqalarda ham keng tarqalib, mahalliy shoirlar uning asarlariga javoban nazira va tatabbu’ she’rlar yozganlar. Alisher Navoiy esa fors adabiyoti vakillari Jomiy va Sa’diy asarlariga ergashib, ularning g‘azallariga javoban tatabbu’ she’rlarni yaratgan. Shuningdek, uyg‘ur shoiri Xorobotiy ijodida ham Rumiy va Navoiyning poetik an’anasi davom etgani Papas tomonidan qayd etiladi.

Tasavvuf adabiyotining badiiy-uslubiy xususiyatlari haqida gapirar ekan, Papas bu she’riyatning asosan fors va turkiy tillarda yaratilganligini va undagi obrazlarning ramziy-majoziy tabiatini ta’kidlaydi. G‘azal, ruboiy, qasida va masnaviy janrlarida yaratilgan tasavvufiy asarlarda «sharob», «yor», «mayxona» kabi allegorik obrazlar orqali ilohiy haqiqat va ruhiy holatlar tasvirlanganligini qayd etadi. Papasning fikricha, tasavvufiy adabiyotning tili ikki qatlamli bo‘lib, zohiran oddiy so‘zlar orqali chuqur ma’nolar anglatilgan.

Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyoti rivojiga mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan bir qatorda, tashqi madaniy ta’sirlar ham sezilarli hissa qo‘shgan. Papas bu jihatni tadqiq qilarkan, Markaziy Osiyoning qo‘shni mintaqalar bilan tarixiy aloqalarini diqqat bilan o‘rganadi. Uning fikricha, Markaziy Osiyo tasavvufiy merosi doimo keng mintaqaviy intellektual almashinuv jarayonining bir qismi bo‘lib kelgan [4;50-b.]. Masalan, Papas Sharqiy Turkiston (Xitoy tarkibidagi Shinjon) misolida Markaziy Osiyo va Xitoy-Tibet olami o‘rtasidagi diniy-madaniy bog‘lanishlarni o‘rganadi. XVIII–XIX asrlarda Sharqiy Turkiston o‘lkasida faoliyat ko‘rsatgan Xoja Afaq va uning avlodlari tarixi orqali u islom tasavvufining ushbu mintaqada mahalliy (xitoy, mo‘g‘ul) an’analar bilan qanday uyg‘unlashganini tahlil qiladi [5;77-b.]. Natijada tasavvufiy harakat ba’zan transchegaraviy xususiyat kasb etib, islom dunyosi va Sharq uyg‘onishlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tashi ilmiy dalillar bilan tasdiqlanadi.

Papas shuningdek Markaziy Osiyodan Hijozga – Makka va Madinaga – amalga oshirilgan haj va ziyorat safarlari tarixini ham o‘rgangan. U 2012-yilda Berlinda chop etilgan “Markaziy Osiyo hojilari: Markaziy Osiyodan Hijozga haj yo‘llari va ziyoratlar” to‘plamidagi tadqiqotlari orqali Markaziy Osiyo musulmonlarining Yaqin Sharq bilan doimiy ma’naviy aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, haj safari davomida mintaqa ziyoratchilari va boshqa musulmon o‘lkalar o‘rtasida ilmiy va adabiy muloqot kechganini, ya’ni markaziy osiyolik hojilar Hijozda o‘sha davrning ilmiy-adabiy muhitidan ta’sirlanib qaytganini ta’kidlaydi [5;112-b.]. Bu kabi dalillar Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyoti rivojida faqat mahalliy omillar emas, balki keng Islom olamidagi madaniy jarayonlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Papasning xulosasiga ko‘ra, Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyoti yopiq, izolatsiyalangan hodisa bo‘lmay, aksincha, umumislomiy adabiy-intellektual maydonning bir qismi sifatida taraqqiy etgan [5;52-b.]. Bu jihatni tasdiqlovchi yana bir misol – o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan mutasavviflar arab va fors tillarida yaratilgan sufiylikka oid asarlarni o‘z ona tillariga tarjima qilganlari va sharhlaganlari, shuningdek, o‘zlari ham shu tillarda ijod qilib, asarlarini boshqa mintaqalarga yoyganlar. Demak, madaniyatlararo ta’sir va adabiy aloqalar Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyotining tarkib topishi va boyishida uzviy jarayon bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, Aleksandr Papas Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyoti va tariqatlar tarixini o‘rganishga yangicha ilmiy ufqlar olib kirgan olimdir. Uning tadqiqotlari natijasida ilm-fan tasavvufiy merosni tor ma’nodagi tariqatlar tarixi doirasidagina emas, balki keng adabiy-madaniy kontekstda tushunish zarurligini anglab yetdi. Papas,

xususan, tasavvufiy adabiyotga doir nazariy va amaliy masalalarni yoritishda tarixiy-kognitiv va antropologik uslullarni qo‘shib, yangicha yechimlarni taklif etdi. U ko‘pincha ilmiy e’tibordan chetda qolgan “pastki qatlam” manbalar – darveshlar kundaligi, xalq orasidagi rivoyatlar, tasavvufiy she’r va qo‘shiqlar – ni ilmiy muomalaga kiritish orqali Markaziy Osiyo tasavvufiy hayotining naqadar boy va rang-barang manzarasini chizib berdi. Papasning ishlari ko‘rsatdiki, Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi va adabiyoti bir butun madaniy hodisa bo‘lib, unda sulton ham, darvesh ham, she’riyat ham, xalq an’analari ham uzviy ravishda bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv milliy va mintaqaviy chegaralardan chiqib, tasavvufiy merosni global islomiy madaniyat kontekstida talqin qilish zarurligini asoslab berdi.

Taqdim etilgan ilmiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda tasavvufiy adabiyot taraqqiyoti doimo avlodlar davomiyligi va madaniyatlararo almashinuv bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Papas bu haqiqatni aniq misollar bilan isbotlab, adabiyotshunoslik va tarix faniga qo‘shimcha bilimlar kiritdi. Uning xulosalari bugungi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Devin DeWeese. Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tükles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition. Pennsylvania State University Press, 1994. (O‘zbek tilidagi tarjima orqali keltirilgan ma’lumotlar).

(2). Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис.док.филол.наук, Ташкент, 1991, 424 с.

(3). Alexandre Papas. Ainsi parlait le derviche: Contes, témoignages et études sur les saints d’Asie centrale. Paris: Maisonneuve & Larose – IFRI, 2008.

(4). Alexandre Papas & Thibaut d’Hubert (eds.). Jami in Regional Contexts: The Reception of ʿAbd al-Rahman Jami’s Works in the Muslim World. London: I.B. Tauris, 2019.

(5). Alexandre Papas. “Soufisme et politique entre Chine, Tibet et Turkestan (XVIIIe–XIXe siècles)”. Journal of the Economic and Social History of the Orient, 58(4), 2015, pp. 531–569.

(6). Jo-Ann Gross. The Begums of Bukhara: A Study of Female Authority in Nineteenth Century Central Asia. Modern Intellectual and Political History of the Middle East Series, 2016 (Markaziy Osiyoda muqaddas sulolalar tarixi).

(7). Anke von Kügelgen. Der Historiographische Diskurs über das Verhältnis von Islam und Staat in Zentralasien (16.–19. Jahrhundert). Berlin, Klaus Schwarz Verlag, 2002.

Rakhimova Dilfuza Masharip qizi (TTA Urganch filiali o‘qituvchisi; e-mail: dilfuza_raximova1@icloud.com)

KAZUO ISHIGURO ASARLARIDA MULTIKULTURALIZM VA SHAXSIY XOTIRA: O‘TMISH, XOTIRA VA HAYOTNING MURAKKABLIGI

Annotatsiya. *Kazuo Ishiguro asarlaridagi multikulturalizm va shaxsiy xotira mavzularini tahlil qiladi. Ishiguro, yapon kelib chiqishi bo‘lgan britaniyalik muallif sifatida, madaniyatlar o‘rtasidagi sintezi va shaxsiy tajribalarni o‘z asarlarida muvaffaqiyatli aks ettiradi. Maqolada, uning “Tepaliklar tumanda” va “Beqaror dunyo rassomi” romanlaridagi asosiy qahramonlarning shaxsiy xotiralari va o‘z o‘tmishi bilan munosabatlari yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining murakkab til uslubi va “soxta tarjima” effektini yaratish maqsadida ingliz va yapon muloqotidagi ko‘prik sifatida ishlatilgan til elementlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kazuo Ishiguro, multikulturalizm, shaxsiy xotira,“Tepaliklar tumanda”, “Beqaror dunyo rassomi”, ingliz va yapon muloqoti, hikoyachilik, estetik tajriba, tarixiy kontekst, shaxsiy va jamiyat xotirasi.*

Рахимова Дильфуза Машарип кизи (преподаватель Ургенчского филиала ТТА; e-mail: dilfuza_raximova1@icloud.com)

МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМ И ЛИЧНАЯ ПАМЯТЬ В ТВОРЧЕСТВЕ КАДЗУО ИСИГУРО: ПРОШЛОЕ, ПАМЯТЬ И СЛОЖНОСТЬ ЖИЗНИ

Аннотация. *Анализируются темы мультикультурализма и личной памяти в творчестве Кадзуо Исигуро. Исигуро, как британский писатель японского происхождения, успешно отражает в своих произведениях синтез культур и личного опыта. В статье исследуются личные воспоминания и отношения со своим прошлым главных героев романов «Холмы в тумане» и «Художник нестабильного мира». В статье также анализируется сложный языковой стиль писателя и языковые элементы, используемые в качестве связующего звена между английским и японским языками с целью создания эффекта «фальшивого перевода».*